SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I2Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 2 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Fargʻona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 2-son (Fevral, 2025). - 630 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Matkarimova Sadoqat Maqsudovna*
SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI ........ 13-19

*Matyakubov Xamdam Xamidjanovich*
MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBOʻYI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR OʻRTASIDAGI OʻZARO TAʼSIR VA HAMKORLIK ........ 20-24

*Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin*
TURKISTONDA JADIDLARNING TAʼLIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN ........ 25-29

*Хуррамова Саодат Хабибовна*
ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА ........ 30-37

*Toʻychiyeva Dilnoza Ikrom qizi*
ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI ........ 38-44

*Elboyeva Shaxnoza*
AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA BU BORADA OʻZBEKISTON TAJRIBASI ........ 45-50

*Kanimkulov Olimjon, Xikmatova Oʻgʻiloy*
TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BOʻLGAN TARIXI HAQIDA ........ 51-54

*Tojiev Alisher Sultannazirovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI ........ 55-60

*Bekbayev Bekjon*
XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN ........ 61-67

*Salayev Umrbek Kadambayevich*
JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BAʼZI CHIZGILAR ........ 68-71

*Roʻziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LOʻLILAR IJTIMOIY HAYOTINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 72-78

*Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi*
ICHKI SAVDO QOʻQON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) ........ 79-84

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kazakov Olim Sabirovich*
XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH ........ 85-89

*Исламутдинова Дина Файзрахмановна*
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 90-98

*Alikulov Mehmonali Salahiddin o‘g‘li*
QISHLOQ XO‘JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA YO‘NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI ........ 99-106

*Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor*
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI ........ 107-113

*Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod*
CHO‘L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LARI ........ 114-121

*Aliyarov Olim Abdug‘aparovich*
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ........ 122-132

*Komilov Bakhtiyorjon*
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA ........ 133-144

*Djumanov Saitmurod Alibekovich*
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 145-150

*Yariyev Sherzod Shukurjanovich*
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI ........ 151-155

*Matkarimov Feruz Bekturdiyevich*
MINTAQADA TO‘QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 156-160

*Xaydarova Durdona, To‘xtayeva Moxinur*
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 161-166

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yusubov Jaloliddin Kadamovich*
ABU NASR FOROBIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI ........ 167-175

*Nosirxo‘jayeva Gulnora Abduqahhorovna*
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA’NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI ........ 176-179

*Xoliqov Yunus Ortiqovich*
BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI ........ 180-184

*Berdaliyeva Sevara*
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB “KUTADGU BILIG” ........ 185-191

*Parpiyev Muhammadjon Tolibovich*
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI ........ 192-197

*Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi*
IBN ARABIY “VAHDATUL VUJUD” TA’LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI ........ 198-202

*Ulug'murodov Elyor Saydulloevich*
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI ........ 203-206

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING
DIALEKTIK MAZMUNI ........ 207-213

*Xasanov Boburjon Xakimovich*
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI ........ 214-219

*Shokirov Mubin Rustamovich*
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT ........ 220-225

*Ismoilov Maxammadixon*
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV
MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI ........ 226-230

*Shokirov Murod Rustamovich*
YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI ........ 231-234

*Hamroyev Saidjon Sanoyevich*
YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR
TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI ........ 235-239

*Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li*
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI
(TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) ........ 240-243

*Ulug'ov Jasur Nasirdinovich*
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING
IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI ........ 244-249

*Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li*
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI
QARASHLARI MISOLIDA ........ 250-253

*Ibragimov Kudrat*
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL
DAVLATLARI ........ 254-260

*Oripov Axmadjon Muxammadjonovich*
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY
TALQINI ........ 261-267

*Ibragimova Zulayxo Karimbayevna*
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI
VA ASOSIY KOMPONENTLARI ........ 268-274

*Abdullayev A'zam Abdiyevich*
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM
XUSUSIYATLARI ........ 275-281

*Ochilov Azimjon Tuxtamishovich*
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING
TARQALISHI ........ 282-285

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI


*Raxmanova Sarvinoz Alisherovna*
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 286-289

*Kaxarova Iroda Sidikovna*
MODAL SO‘ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH ........ 290-296

*Babadjanova Nazokat Davronbekovna*
“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI ........ 297-302

*Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna*
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK “ULUG‘ SALTANAT” ........ 303-308

*Hatamova Kamola Toshmurod qizi*
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA ........ 309-316

*Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna*
TERMINOLOGIYANING O‘ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI ........ 317-321

*Otajonova Dildor Baxtiyarovna*
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI ........ 322-326

*Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich*
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES ........ 327-331

*Xoshimova Oydina Shuxrat qizi*
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O‘RNI VA RANGLAR IFODASI ........ 332-338

*Babayeva Iroda*
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING ........ 339-342

*Fozilov Odil Yuldashevich*
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE........ 343-346

*Raxmonova Dildora Mirzakarimovna*
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING “BAXTSIZ KUYOV” DRAMASI MISOLIDA) ........ 347-351

*Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna*
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI ........ 352-357

*Xamidova Sayyora Nurmatovna*
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 358-363

*Mengboyev Azizbek Alijon o‘g‘li*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI ........ 364-368

*Hayitova Shohida Erkin qizi*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI ........ 369-373

*Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi*
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI ........ 374-378

*Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich*
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O‘RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O‘ZIGA XOSLIGI ........ 379-385

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Мухитдинова Фирюза*
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА ........ 386-393

*Uzakova Go‘zal Sharipovna*
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI ........ 394-403

*Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat*
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ........ 404-414

*Yakubova Iroda Bahramovna*
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI ........ 415-419

*Obidov Tolibjon Avezxanovich*
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI ........ 420-425

*Tuxtashev Sherzod Azimovich*
JINOYAT ISHINI TO‘XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI ........ 426-430

*Maxamatov Maxmud Maxamataminovich*
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI ........ 431-436

*Rahmatov Elyor Jumaboyevich*
BOJXONA MA’MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ISHTIROKI ........ 437-441

*Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna*
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI ........ 442-447

*Shermatov Nuriddin*
RAQAMLI ERADA SUN’IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA ........ 448-455

*Juraeva Asal*
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS ........ 456-461

*Собиров Саидбек Махмудович*
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ ........ 462-467

*Nurbayev Muzaffar Erkinovich*
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 468-478

*Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o‘g‘li*
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI ........ 479-485

*Xabibullayev Azizillo Lutfullo o‘g‘li*
SUN’IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR ........ 486-491

*To‘xtayev O‘ktamjon Zarifjon o‘g‘li*
MURAKKAB ASHYOLARNING O‘ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI ........ 492-500

*Yusupov O‘ktamboy*
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI ........ 501-509

*Murodxonov Muhammadnur*
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O‘RNI ........ 510-518

*Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса*
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ........ 519-523

*Qudratillayev Xazratali Zokirjon o‘g‘li*
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI ........ 524-530

*Umarov Abbosjon Asliddin o‘g‘li*
SUG‘URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI ........ 531-536

*Хайдарова Хилола Анваровна*
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ ........ 537-542

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Ibraximov Sanjar Urunbayevich*
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIGI ........ 543-547

*Karimov Akramjon Zaynobidinovich*
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA’LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 548-554

*Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich*
7-9 YOSHLI O‘QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O‘YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ........ 555-561

*Karimov Qayum Mamashayevich*
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O‘QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ........ 562-569

*Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI ........ 570-576

*Qodirov Azamat Muxriddinovich*
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF OʻQUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN OʻQISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YOʻNALGAN OʻQISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA ........ 577-582

*Тлеумуратова Абадан Бекбановна*
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ........ 583-585

*Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich*
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ........ 586-592

*Mamaziyayev Oblaberdi*
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI ........ 593-598

*Isoqov Murod Madaminjonovich*
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILGʻOR XORIJIY MODELLARI ........ 599-605

*Nasriddinova Hulkar Komiljonovna*
BOSHLANGʻICH SINFLARDA MATEMATIKANI OʻQITISHNING HOZIRGI HOLATI ........ 606-610

*Allayeva Hafiza Rustam qizi*
BOSHLANGʻICH SINFDA OʻQITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI ........ 611-614

*Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna*
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHGʻULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI ........ 615-621

*Xoʻjaqulov Roʻzibek Ilhomjon oʻgʻli*
BOʻLAJAK TASVIRIY SAN'AT OʻQITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI ........ 622-625

*Elova Sitora Axmatkulovna*
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI ........ 626-629

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 2 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 25 January 2025
**Accepted:** 1 February 2025
**Published:** 10 Feburary 2025

*Article / Original Paper*

# THE RELATIONSHIP BETWEEN ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS

**Khabibullayev Azizillo**
Master's Student in Prosecutorial Activities
Academy of Law Enforcement of the Republic of Uzbekistan
E-mail: azizillo9055@gmail.com

**Abstract.** Currently, artificial intelligence technologies are being widely implemented in the technical field. These innovative technologies are capable of creating astonishing discoveries without human intervention, which is causing complex issues in the field of intellectual property rights. This necessitates reviewing not only patent law but also traditional concepts of copyright law. Below, we will discuss the impact, role, and legal significance of artificial intelligence's development and use on intellectual property rights. Additionally, solutions will be presented for potential problems that may arise in this field, particularly regarding matters of artificial intelligence liability.

**Keywords:** intellectual property rights system, artificial intelligence technologies, copyright and related rights, products of inventive activity, legal protection of utility models and industrial designs, trademarks and their legal protection.

# SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR

**Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li,**
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Prokurorlik faoliyati yo'nalishi magistri

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari texnika sohasida keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Ushbu innovatsion texnologiyalar inson aralashuvisiz hayratlanarli kashfiyotlar yaratishga qodir bo'lib, bu holat intellektual mulk huquqlari sohasida murakkab masalalarni keltirib chiqarmoqda. Chunki bu nafaqat patent huquqi, balki mualliflik huquqlarining an'anaviy tushunchalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Quyida sun'iy intellektning rivojlanishi va undan foydalanish natijasida intellektual mulk huquqiga ko'rsatayotgan ta'siri, tutgan o'rni hamda huquqiy ahamiyati xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, mazkur sohada vujudga kelishi ehtimol tutilgan muammolarga, xususan sun'iy intellektning javobgarlik masalalariga doir yechimlar taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** intellektual mulk huquqlari tizimi, sun'iy intellekt texnologiyalari, mualliflik huquqi va unga aloqador huquqlar, ixtirochilik faoliyati mahsullari, foydali modellar va sanoat namunalarining huquqiy muhofazasi, tijorat belgilari va ularning huquqiy himoyasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N78

**Kirish.** Yigirmanchi asrning oxirlarida ilm-fan va texnologiyadagi qilingan ixtirolar natijasida texnika-injenering sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Ilmiy kashfiyotlar va mavjud texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni uzluksiz davom etmoqda. Uzoq vaqtgacha yaratuvchanlik va ixtirochilik qobiliyatlari faqat insonlarga xos xususiyat hisoblanardi.

Lekin, zamonaviy texnologiyalarning rivoji, ayniqsa sun'iy intellektning paydo bo'lishi, bu an'anaviy tushunchani tubdan o'zgartirdi. Sun'iy intellekt — bu kompyuter muhandisligi va

ilmiy tadqiqotlarning yuksak integratsiyasi boʻlib, inson kabi mantiqiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatiga ega boʻlgan murakkab texnologik tizimdir. Bu innovatsion texnologiyaning afzalliklari va imkoniyatlari behad keng boʻlib, u nafaqat kundalik hayotning turli sohalarida, balki intellektual mulk dunyosida ham tub oʻzgarishlarni amalga oshirish salohiyatiga ega. Biroq, sunʼiy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi intellektual mulk sohasida bir qator muhim masalalarni kun tartibiga qoʻymoqda, ularni yaqin istiqbolda hal etish zarurati tugʻilmoqda. Ayniqsa, ushbu texnologiyaning turli xil obyektlarni mustaqil ravishda yaratish va yangi brend nomlarini ishlab chiqish qobiliyati eʼtiborga molik. Bu esa tabiiy ravishda muhim savolni keltirib chiqaradi: sunʼiy intellekt tomonidan yaratilgan mahsulotlar intellektual mulk maqomini olishga haqlimi?

**“Sunʼiy intellekt**“ (qisqacha SI) tushunchasi ilm-fan olamiga 1956-yilda Jon Makkarti tomonidan olib kirilgan boʻlib, u dastlab bu tizimni “intellektual mashinalarni yaratish ilmi va muhandislik sohasi” sifatida taʼriflagan edi. “Mazkur taʼrif vaqt oʻtishi bilan evolyutsion tarzda rivojlanib, zamonaviy ilmiy terminologiyada *“intellektual agentlarning oʻrganish jarayoni va loyihalash tizimi”* sifatida talqin etila boshlandi. Bu yangi taʼrif SI tizimining yanada kengroq imkoniyatlarini va murakkab vazifalarini oʻzida mujassam etdi.”[1]

“Sunʼiy intellekt (SI) tushunchasi rivojlanishiga 1950-yillarda Alan Turing katta hissa qoʻshgan. U 1935-yilda shaxmat oʻyini misolida mashinalarni inson tajribasidan oʻrganishga va turli muammolarni hal qilishga oʻrgatish mumkinligini taklif etgan.”[2] SI oʻz faoliyatida boshqa sohalardagi ilmiy nazariyalar va texnologik vositalardan keng foydalanadi. Shu bilan birga, u robototexnika, monitoring tizimlari, maʼlumotlar bazalari, nutqni qayta ishlash qobiliyati va boshqa koʻplab imkoniyatlarga ega. Ushbu jihatlar tufayli sunʼiy intellekt insonga oʻxshash vazifalarni bajarishga qodir.

Sunʼiy intellekt bugungi kunda intellektual mulk huquqlarining deyarli barcha turlarini yarata olish imkoniyatiga ega. Avvalo, sunʼiy intellektning mualliflik huquqi obyektlari bilan bogʻliq jihatlarini koʻrib chiqamiz.

SI uzoq vaqtdan buyon turli ijodiy faoliyatlarda ishtirok etib kelmoqda. 1970-yillardan boshlab kompyuterlar sanʼat asarlarini yaratishni boshlagan va bu jarayon hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Biroq, ushbu kompyuter yaratgan sanʼat asarlarining koʻpchiligi dasturchi tomonidan kiritilgan ijodiy elementlarga juda bogʻliq boʻlib, kompyuter asosan moʻyqalam yoki matoga oʻxshash qurol yoki qurollar tizimi vazifasini bajargan.

Hozirgi vaqtda biz texnologik inqilob ostonasida turibmiz va bu bizdan kompyuterlar va ijodiy jarayon oʻrtasidagi munosabatlarni qayta koʻrib chiqishni talab qilishi mumkin. Bu inqilob inson tomonidan maxsus dasturlashtirilmasdan oʻrganish qobiliyatiga ega boʻlgan mustaqil tizimlarni yaratadigan sunʼiy intellektning tarkibiy qismi boʻlgan mashinani oʻrgatish dasturining tez rivojlanishi bilan bogʻliq. Misol uchun, Parijda joylashgan Sony kompaniyasi birinchi bor sunʼiy intellekt yordamida “Daddyʼs car” nomli qoʻshiqni yaratishga erishadi.[3]

Shuningdek, 2017-yildan boshlab Google kompaniyasi kundalik yangiliklar toʻgʻrisida maqola va gazetalar yozuvchi sunʼiy intellektni moliyalashtirishni yoʻlga qoʻydi. Tez orada, Buyuk Britaniya va Irlandiya gazeta birlashmasi ushbu turdagi maqolalar uchun 706,000 yevro (621,000 funt sterling) miqdorida mablagʻ qoʻlga kiritganini eʼlon qiladi.[4]

Oʻzbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar toʻgʻrisida”gi qonuniga koʻra, barcha turdagi elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, jumladan har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda, xususan boshlangʻich matn hamda obyekt

kodida ifodalanishi mumkin boʻlgan amaliy dasturlar va operatsion tizimlar mualliflik huquqi obyekti sifatida himoyalanishi belgilangan. Ammo, yuqorida ta’kidlanganidek, sun’iy intellekt elektron hisoblash mashinalari uchun dastur yoki kodlashtirilgan operatsiyalar tizimidan farq qiladi. U xuddi inson kabi mustaqil ravishda harakat qilish qobiliyatiga ega.

Sun’iy intellektning tobora ortib borayotgan ixtirochilik salohiyati mashinani oʻrganish konsepsiyasi ***(Machine Learning)*** bilan uzviy bogʻliq. Ta’kidlash joizki, mashinani oʻrganish konsepsiyasi ma’lumotlarni qayta ishlash orqali kelajakda qaror qabul qilish imkonini beruvchi algoritmlarni ishlab chiqish va qoʻllashni oʻrganadi. Masalan, sun’iy intellekt musiqa, san’at va adabiy asarlarning mualliflik huquqi sohalarida qoʻllanilganda, dastlab kompyuter dasturchilari tomonidan kiritilgan ma’lumotlarni tahlil qiladi. Soʻngra, sun’iy intellekt tizimi yangi asarlarni yaratish uchun mustaqil qarorlar qabul qiladi va ish jarayonini oʻzini oʻzi boshqarish orqali amalga oshiradi. Bu jarayonda sun’iy intellekt ishning qaysi tartibda olib borilishini ham mustaqil ravishda belgilaydi.

O. Oqyoʻlovning fikriga koʻra, “intellektual mulk huquqi oʻz tarkibiga bir necha asosiy institut va subinstitutlarni qamrab oladi. Ular orasida mualliflik huquqi instituti (unga turdosh huquqlar subinstituti kiradi), patent huquqi instituti yoki sanoat mulki instituti (tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy belgilarini ifodalovchi vositalar subinstituti bilan birga) hamda oshkor etilmagan axborotlarni huquqiy muhofaza qilish subinstituti va noan’anaviy obyektlar subinstituti mavjud. Ushbu tizimning murakkabligi va noaniqligi sababli, uning tarkibiy qismlarini institut yoki subinstitut sifatida belgilash masalasi kelgusida yanada chuqurroq oʻrganishni talab qiladi. Bu esa ushbu sohaning bahs-munozaralarga boy boʻlishiga olib kelishi tabiiydir.”[5]

Ba’zi olimlar sun’iy intellektga nisbatan amalda boʻlgan hayvonlarga oid qonunchilikni tatbiq etish kerak deb hisoblashadi. Milliy qonunchiligimizda, xususan, Fuqarolik kodeksining 93-moddasiga koʻra, “agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan boʻlsa, mol-mulk toʻgʻrisidagi umumiy qoidalar hayvonlarga ham qoʻllanilishi belgilangan.”[6] Shuningdek, ushbu kodeksning 1002-moddasiga muvofiq, “uy hayvoni yetkazgan zarar uchun uning egasi yoki hayvon egaligi va foydalanishida mas’ul boʻlgan shaxs javobgarlikni zimmasiga oladi.”

2016-yilda sun’iy intellekt dasturi tomonidan yozilgan roman deyarli milliy mukofotga sazovor boʻldi. “Kompyuter roman yozgan kun” nomli ushbu asar Yaponiyada oʻtkazilgan 3-Nikkei Hoshi Shinichi adabiy mukofotlari marosimida ikkinchi oʻrinni egalladi.[7] Shu yilning oʻzida Gollandiyada tadqiqotchilar kompyuter tomonidan yaratilgan “Keyingi Rembrandt” nomli san’at asarini taqdim etganliklari haqida xabar tarqaldi. Ushbu asar sun’iy intellekt tizimi yordamida taniqli golland rassomi Rembrandtning rasmlari skanerlanib, yuzni aniqlash algoritmidan foydalanilgan holda yaratilgan edi. Bu yutuqlar sun’iy intellektning ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatli qoʻllanilishini koʻrsatadi.

*Ushbu va boshqa holatlarning asosiy muammosi shundaki, sun’iy intellekt va uning yaratuvchisi oʻrtasida, ya’ni sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan ixtiro yoki asar ustidan kim egalik huquqiga ega boʻlishi kerak? Boshqacha aytganda, sun’iy intellektga intellektual mulk huquqi doirasida mualliflik huquqi berilishi mumkinmi?*

Sun’iy intellektning individual huquqiy layoqatini qonuniylashtirish imkoniyati bir qator sabablarga koʻra cheklangan.

Birinchidan, ong va oʻz-oʻzini anglashga asoslangan huquq layoqatini tan olish mezoni mavhum boʻlib, bu koʻplab huquqbuzarliklar va qonunni suiiste’mol qilish holatlariga olib

kelishi mumkin. Bu esa jamiyatda tabaqalanish kabi ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqaradi. S. Chopra va L. Uaytning tadqiqotlarida ong va oʻz-oʻzini anglash sunʼiy intellekt tizimlarini huquqiy subyekt sifatida tan olish uchun zarur yoki yetarli shart emasligi taʼkidlangan. Huquqiy amaliyotda toʻliq ongli shaxslar, masalan, bolalar yoki Rim huquqida qullar, huquq layoqatidan mahrum yoki cheklangan boʻlishi mumkin. Shuningdek, ogʻir ruhiy kasalliklarga chalingan yoki komada boʻlgan shaxslar ongli boʻlish qobiliyatiga ega emaslar, ammo huquqiy subyekt sifatida toʻliq huquq layoqatiga ega boʻlib qoladilar. Ong va oʻz-oʻzini anglash mezonining mustahkamlanishi fuqarolarni oʻzboshimchalik bilan huquq layoqatidan mahrum qilish xavfini tugʻdiradi.

Ikkinchidan, sunʼiy intellekt tizimlari oʻz huquq va majburiyatlarini belgilangan huquqiy maʼnoda amalga oshira olmaydi, chunki ular oldindan yozilgan dastur asosida ishlaydi va yuridik ahamiyatga ega qarorlar insonning subyektiv, axloqiy tanloviga asoslanishi kerak. Bunday “odam”ning barcha axloqiy munosabatlari, his-tuygʻulari va istaklari inson aql-zakovatidan kelib chiqadi. Sunʼiy intellekt tizimlarining tashqi antropogen nazoratisiz yoki inson taʼsirisiz mustaqil ravishda qaror qabul qilish qobiliyati keng qamrovli emas. Hozirda sunʼiy intellekt faqat odamlarning gʻoyalari va axloqiy munosabatlariga asoslangan “kvazi-avtonom qarorlar” qabul qilishga qodir. Shu nuqtai nazardan, sunʼiy intellektning xatti-harakatlariga haqiqiy axloqiy baho berish qobiliyati mavjud emas, faqat AI tizimining “harakat-operatsiyasi”ni koʻrib chiqish mumkin.

Uchinchidan, sunʼiy intellektning individual huquqiy layoqatini eʼtirof etish (ayniqsa, uni jismoniy shaxs maqomiga tenglashtirish shaklida) Rim huquqidan boshlab shakllangan va huquqiy anʼanalarning buzgʻunchi oʻzgarishiga olib keladi hamda inson huquqlari sohasida bir qator prinsipial hal qilib boʻlmaydigan falsafiy va huquqiy muammolarni koʻtaradi. Huquq ijtimoiy normalar tizimi va ijtimoiy hodisa sifatida inson imkoniyatlarini hisobga olgan holda, inson manfaatlarini taʼminlash maqsadida yaratilgan. Yana bir jihat shundaki, bu konsepsiya tarafdorlarining asarlarida odatda faqat robotlar, yaʼni jismoniy dunyoda odamlar bilan oʻzaro aloqada boʻladigan kiber-jismoniy sunʼiy intellekt tizimlari tilga olinadi, virtual tizimlar esa bundan mustasno, garchi kuchli sunʼiy intellekt paydo boʻlsa virtual shaklda ham gavdalanadi.

Yuqoridagi dalillarga asoslanib, sunʼiy intellekt tizimining individual huquqiy layoqati tushunchasi amaldagi huquqiy tartibga koʻra yuridik jihatdan imkonsiz deb hisoblanishi kerak.

Koʻplab mutaxassislar mavjud qonunchilikdan kelib chiqib, anʼanaviy qarashlarga ega. Unga koʻra, “mualliflik va ixtirochilik huquqlari faqat jismoniy shaxslarga tegishli boʻlishi kerak.”[8] Bu holat sunʼiy intellektning huquqiy maqomini aniqlashda turli bahs va muhokamalarni keltirib chiqarmoqda.

Soha mutaxassislaridan, xususan, ***Kazlen Valch*** taʼkidlaganidek, “hatto eng rivojlangan va kuchli sunʼiy intellekt ham tirik mavjudot emas, balki oddiy texnik vosita boʻlib qoladi. Boshqacha aytganda, u faqat ixtirochilarning qoʻlidagi asbobdir, shuning uchun intellektual mulk huquqlari faqat jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boʻlishi mumkin.”[9]

***Maria Diaz*** esa, “sunʼiy intellektning inson ishtirokisiz mustaqil ravishda asar yaratish imkoniga ega emasligini hisobga olib, sunʼiy intellektning ijodkorlik huquqi faqat insonlarga tegishli boʻlishi kerak, deb hisoblaydi.”[10]

***Gabrielening*** fikriga koʻra, “agar sunʼiy intellektga intellektual mulk huquqlarini berish masalasi koʻrib chiqilishi kerak boʻlsa, hozirgi kunda bu uchun vaqt hali kelmagan, chunki sunʼiy intellektning rivojlanish darajasi bu masalani hal qilishga yetarli emas.”[11]

**Xulosa** qilib aytganda, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ixtiro yoki asarlar odamlarning ishtirokini talab qilgani uchun, ularning patent yoki mualliflik huquqi odatda insonlarga tegishli boʻlishi kerak. Chunki sun'iy intellekt inson aralashuvisiz bunday natijalarga erisha olmas edi. Biroq, xorijiy mamlakatlar, jumladan, Buyuk Britaniya va Avstraliya tajribasidan kelib chiqib, sun'iy intellektga kamida yuridik shaxs maqomini berish zarur deb hisoblayman.

Sun'iy intellekt tizimlari va yuridik shaxslar oʻrtasidagi huquq layoqatiga ega boʻlishdagi oʻxshashlik ularning majburiy davlat roʻyxatidan oʻtish jarayonida namoyon boʻladi. Yuridik shaxslar belgilangan roʻyxatga olish tartibidan oʻtgach, huquqiy maqom va huquq layoqatiga ega boʻlib, yuridik subyekt sifatida tan olinadi. Bu model sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy layoqati haqidagi munozaralarni davom ettiradi, chunki huquqiy layoqatni boshqa (huquqiydan tashqari) asoslar boʻyicha tan olish istisno qilinadi, holbuki shaxslar tugʻilishi bilan ichki shartlarsiz huquqiy subyekt sifatida tan olinadi.

Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, sun'iy intellekt tizimlariga huquq layoqatini berish uchun yuridik shaxslarning davlat reyestriga oʻxshash tarzda tegishli davlat reyestrlariga kiritish talab qilinadi. Bu usul barcha yuridik shaxslarni tizimlashtirish va yagona ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi, bu esa davlat organlari (masalan, soliq sohasida) va bunday subyektlarning potensial kontragentlari uchun nazorat va monitoringni osonlashtiradi.

Har qanday yurisdiksiyada yuridik shaxslarning huquqlari odatda jismoniy shaxslarnikidan kamroq boʻladi; shuning uchun sun'iy intellektga huquq layoqatini berishda ushbu tuzilma qoʻllanilishi unga avvalgi konsepsiya tarafdorlari tomonidan taklif qilingan bir qator huquqlarni berish bilan bogʻliq emas.

Yuridik fantastika texnikasini yuridik shaxslarga nisbatan qoʻllashda yuridik shaxsning harakatlari uning boshqaruv organlari orqali oʻz "irodasini" shakllantiradigan va amalga oshiradigan jismoniy shaxslar birlashmasi orqali amalga oshiriladi.

Sun'iy intellekt faoliyatini tartibga solishda yuridik shaxslar faoliyatini boshqaruvchi qoidalarga oʻxshash qonunlar qoʻllash yanada samaraliroq boʻladi. Bu fikr mantiqan toʻgʻri, chunki yuridik shaxs sun'iy ravishda yaratilgan qonuniy subyekt hisoblanadi, shuningdek, robotlar ham shunday maqomga ega boʻlgan subyektlar sifatida tan olinishi mumkin.

Shunday qilib, sun'iy intellektning intellektual mulk huquqidagi huquqiy maqomini qonunchilik asosida mustahkamlashni iloji boricha tezroq amalga oshirish foydali boʻladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. TechTarget and Informa Tech's Digital Businesses Combine. https://www.techtarget.com/searchenterpriseai/definition/agent-intelligent-agent
2. Alan Turing and The Beginning of AI, available at https://www.britannica.com/technology/artificialintelligence/Alan-Turing-and-the-beginning-of-AI
3. The first pop song ever written by artificial intelligence is pretty good, actually.https://qz.com/790523/daddys-car-the-first-song-ever-written-by-artificial-intelligence-is-actually-pretty-good
4. Julia Gregory, Press Association Wins Google Grant to Run News Service Written by Computers (6 July. 2017) available at accessed 3rd October, 2021.

5. O.Oqyo`lov. Fuqarolik-huquqiy institutsional tuzilmalar evolyutsiyasi (tadrijiy rivoji) muammolari/ "Fuqarolik qonunchilig: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy koferensiya materiallari. – T.: TDYI nash.2004. 96-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi I Bo'lim Umumiy qoidalar 93-modda https://lex.uz/mact/-111189
7. Chloe Olewitz, A Japanese A.I Program Just Wrote a Novel, and it Almost Won a Literary Prize, (23rd March, 2016).
8. O'zbekiston Respublikasining 20.07.2006 yildagi O'RQ-42-son "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni https://lex.uz/ru/docs/-1022944
9. Kathleen Walch, "Artificial Intelligence Is Not a Technology", (2018).
10. Maria Diaz "Artificial Intelligence and Copyright" https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=ab3340fa-57e5-4145-afe9-110b088c9e36
11. Gabriele (2021), Patent Systems and Artificial Intelligence: Towards a New Concept of Inventorship? Zenodo https://doi.org/10.5281/zenodo.5720649

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).